



TIL O'RGATISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Mamashoyev Umid Ulug'bek o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada chet tilini, xususan ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'rni tahlil etilgan. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha qabul qilingan davlat qarorlari asosida ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlar joriy qilinayotganligi, interfaol metodlar, multimedia vositalari va vizual taqdimotlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy metodlar, chet tili, interfaol ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IKT, ingliz tili, taqdimot, innovatsiya.

Аннотация

В статье анализируется роль современных педагогических подходов и использования информационно-коммуникационных технологий в обучении иностранному языку, в частности английскому. На основе принятых в Республике Узбекистан государственных постановлений по вопросам преподавания иностранных языков в систему образования внедряются инновационные подходы, рассматриваются пути повышения эффективности обучения за счет интерактивных методов, мультимедийных средств, наглядных презентаций.

Ключевые слова: современные методы, иностранный язык, интерактивное обучение, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, английский язык, презентация, инновации.

Annotation

This article analyzes the role of modern pedagogical approaches and the use of information and communication technologies in teaching a foreign language, in



particular English. The introduction of innovative approaches to the education system in the Republic of Uzbekistan on the basis of state resolutions on teaching foreign languages, ways to increase the effectiveness of education through interactive methods, multimedia tools and visual presentations are considered.

Keywords. modern methods, foreign language, interactive education, information and communication technologies, ICT, English, presentation, innovation.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabr PQ1875 sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Zamonaviy pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:" belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida chet tillarni o'qitishning zamonaviy, texnologiyalarini, usullarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish masalalari dolzarb bo'lib turibdi[4].

Chet tilini o'qitish uchun o'quv-metodik adabiyotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda o'quvchilarni rivojlanishini e'tiborga olgan holda maxsus o'quv dasturlar yaratish, ta'lim tizimini axborot va ilmiy-metodik ta'minlash, bazisli o'quv rejalarini va na'munali kurs dasturlarini ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarni chop etishni tashkillashtirish, o'quv qo'llanmalar va darsliklarni turli ko'rinishdagi taqdimotlarni axborot texnologiyalari asosida virtual resurslar ko'rinishida yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish, ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan metodikalarni pedagogik texnologiyalardan foydalanib mukammallashtirish va masofali ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarni echishni talab qiladi. Chet tilini (ingliz tilini) o'qitishda 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalari, umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylar, oliy ta'limni



qamrab oladigan o'qitish tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu o'qitish tizimini yaratishdan maqsad farzand dunyoga kelgandan boshlab uning ulg'ayib borish davri mobaynida ta'lim muassalarining turli bo'g'inlarda bilim olishi ta'minlanadi[2].

Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda information va kommunikatsion texnologilardan (IKT) foydalanib o'quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash tamoyillarini ishlab chiqish va uning asosida dars jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Albatta biz bilamizki yosh avlodni tarbiyalashda har tomonlama yetuk qilishda astoyidil e'tabor talab qiladi. Chunki ta'lim berishda hozirda qo'llanilayotgan metodlar yoki multimedia vositalari orqali ularga yoritib berilayotgan mavzular so'zimiz dalilidir. Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTM) ingliz tilini o'qitishni tashkil qilish masalasi yotadi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni ingliz tilini o'qitishda IKT asosida alifbodagi harflarni taqdimotlar ko'rinishida tashkil etishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Metodlar

Yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmani rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy kommunikativ texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Akademik litseylarning oliy ta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgani ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etayotir. Litseylar universitet va institutlar bilan o'quv-uslubiy, tashkiliy masalalarda uzviy bog'langan. O'quv dasturlarining tabaqalashtirilgan variantlarini ishlab chiqish, zamonaviy ilg'or va innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv-uslubiy majmualar yaratish va ekspertizadan o'tkazishda oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tajribasidan keng foydalanilmoqda[1].

O'quv jarayoniga texnologiyani kiritishga urinishlar o'tgan asr davomida to'xtovsiz bo'lgan. O'tgan asrning 50-yillarigacha ular bir texnik muhit – an'anali ta'limning avtomatlashtirilgan vositalar jamlamasini yaratishga qaratilgan. 50-yillarda esa aynan o'quv jarayonini tashkil etishda yangicha texnologik yondashish paydo bo'ldi. Birinchi yo'nalish ham yangi informatsion texnologiyalarni o'zlashtirish yo'lida rivojlanib bormoqda. Ikkala yo'nalish tobora bir-biriga kirishib, ta'lim



nazariyasini yangilamoqda. Aytish joizki, hozirgi kunda ta'lim texnologiyasi tushunchasini keng ma'noda tushunish mumkin, ham pedagogik fan sohasi sifatida, ham ma'lum o'qitish texnologiyasi sifatida ham zamonaviy elektron texnologiyalar sifatida. Chunki hozirda elektron texnologiyalar, elektron ta'lim tushunchalari nafaqat jamiyatda balki ta'limda ham o'z aksini topmoqda[5].

Natijalar

Butun dunyoda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va undan foydalanish ommalashib ketdi. Sababi bunday ma'lumotlar bilan ishlash qog'ozli ma'lumotlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga egadir. Ta'limda ingliz tilini o'rgatishda "Arra" o'zaro o'qish texnikasi, "Birgalikda o'qiymiz", "O'ylang, juftlikda ishleng – fikr almashing" birgalikda o'qish texnikasi, "Inster, Toifali, Konseptual, BBB, SWOT-tahlil" jadvallari, "Klaster, Kaskad, Nilufar guli, Piramida, Baliq skleti, Nima uchun?", kabi sxemalardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshiradi va mustahkamlaydi. Bunday interfaol metodlaridan foydalanish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish dars sifatini oshiradi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga asoslanadi. Bu metodlardan foydalanilganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli hayotiy faoliyatga aylanadi. Interfaol usul qo'llanganda o'quvchilar o'qitilmaydi, balki ularning o'zlari o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi. Bu hol bolalarga erkin fikrlash, mustaqil ishlashga rag'bat aydo qiladi[3].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ayniqsa interfaol metodlar va IKT vositalarining chet tillarni o'rgatishdagi samaradorligi yuqori. Bu vositalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi va erkin muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantiradi. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ingliz tilini vizual taqdimotlar orqali o'qitish, bosqichma-bosqich yondashuvlar orqali tilga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin. Interfaol metodlar darsda o'quvchilarning faolligini ta'minlab, ularni amaliy faoliyatga jalb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fanning o'quv-metodik majmuasi tarkibi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'atining 2009 yil 10 dekabrda 11/6 raqamli «Oliy ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha zamonaviy darslik va o'quv-uslubiy majmualar tayyorlash to'g'risida»gi qarori 3-ilova. Тошкент, 2009. – 44 b.
2. Umid Ulug'bek o'g, M. (2025, April). XORIJIY VA MILLIY ASARLAR ASOSIDA GAMIFIKATSIYA VA ROLDA O'YNASH METODLARINI JORIY ETISH. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 44-52).
3. Umid Ulug'bek o'g, M. (2025, April). TIL O'RGANISHDA AUDIO-KITOBBLAR VA MULTIMEDIA RESURSLARNING O'RNI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 36-43).
4. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).
5. Umid Ulug'bek o'g, M. (2025, April). INDIVIDUAL TIL O'RGATISH METODIKALARINI SHAKLLANTIRISH. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 70-77).
6. Baxtiyorovna, M. T., & Abdumannonova, A. D. (2022). Use and application of interactive methods in teaching German.
7. Sherqulovich, M. K. (2025, April). “YOSH VERTERNING IZTIROBLARI” ASARINING NEMIS ADABIYOTIDAGI O'RNI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 43-48).
8. Markayev, K., Maxmudov, N., & Xamrayev, D. (2003). Sprichworter/Maqollar T.
9. Маркаев, К. Ш. (2023). ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ. IMRAS, 6(8), 240-244.
10. Komilovich, S. S. (2025, April). TOMAS HARDINING “G'ALATI OLOMONDAN UZOQDA” ROMANIDAGI OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING BADIY YUKLAMASI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 64-72).



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

11. Komilovich, S. S. (2025, April). TOMAS HARDINING “G ‘ALATI OLOMONDAN UZOQDA” ROMANINING POETIK XUSUSIYATLARI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 54-63).
12. Sherqulovich, M. K. (2025, April). YOSH VERTERNING IZTIROBLARI” ROMANINING YEVROPA MADANIYATIGA TA’SIRI. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 49-53).
13. Markayev, K. (2005). Totemistik Tasavvurler Bilen Bağlık Etnonimler. Özbek Tili ve Edebiyati, 94-97.
14. Бобокалонов, Р. Р., Курбанов, П. А., Маркаев, К. Ш., & Хаитов, Ч. (2016). ДОСТИЖЕНИЯ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ ТЕКСТА НА ОСНОВЕ НАУЧНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. International scientific journal, 30.
15. Jabborovich, X. J., & Sherkulovich, M. K. (2020). Lexicographic study of ethnonymy semantics. Test Engineering and Management, 83(5-6), 737-742.
16. SHERQULOV, S. TRAGEDY IN WILLIAM FAULKNER’S “THE SOUND AND THE FURY”. O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324.
17. Komilovich, S. S. (2023). TOG ‘AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA’SIRI. Journal of Integrated Education and Research, 7(1), 75-77.
18. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA’SIR MASALALARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).
19. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). “MARJONLAR O’YINI” ROMANIDA G’ARB VA SHARQ TAFAKKURINING SINTEZI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 80-87).
20. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 72-79).
21. Abdumannonovna, A. D. (2025, April). “MARJONLAR O ‘YINI” ROMANIDA INTELLEKTUAL DUNYO VA REAL HAYOTNING AJRALISHI



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

MUAMMOSI. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 169-176).

22. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). “YO ‘QOTILGAN AVLOD” KONSEPSIYASI VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O ‘RNI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 115-123).

23. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). GYOTE VA SHARQ ADABIYOTI: MADANIYATLARARO MULOQOT TIMSOLI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 96-105).

24. Abdumannonovna, A. D. (2025, May). ERIX MARIYA REMARK ASARLARIDA YO ‘QOTILGAN AVLOD TASVIRI. In Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (pp. 106-114).

25. Зикриллаева, Ф., Дустмуродова, М., Нормаматова, Н., Сайдуллоева, М., & Абдирахимова, М. (2025). Globalizatsiyalashgan zamonaviy tilshunoslik paradigmalari. Инновации в современной лингвистике и преподавании языков, 1(1), 298-300.

26. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O ‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).

27. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA O‘ZARO MULOQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).

28. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).

29. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKILOTLAR O‘RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).

30. Axmedovna, B. S. (2025, February). O‘ZBEKISTONDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

31. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
32. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).
33. Egamberdiyev, X. S., Abduvaliyev, A. A., & Pardayev, O. C. (2023). RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTON TURISTIK GEOPORTAL TIZIMINING TASHKILIY ARXITEKTURASI. Экономика и социум, (6-1 (109)), 115-120.
34. Egamberdiyev, H. S., & Khujakulov, A. K. (2024). VIRTUAL MUSEUMS AS PART OF A DIGITAL CULTURAL ENVIRONMENT. Экономика и социум, (3-1 (118)), 121-125.
35. Джуманов, Ж. Х., & Эгамбердиев, Х. С. (2018). Разработка и внедрение устройств автоматизированных измерений параметров подземной гидросферы. Математик моделлаштириш, алгоритмлаш ва дастурлашнинг долзарб муаммолари. Республика конференцияси. Тошкент, 17-18.
36. Джуманов, Ж. Х., Юсупов, Р. А., & Эгамбердиев, Х. С. (2019). ва б. К вопросу практического применения «Big DATA» в гидрогеологических исследованиях. In Пятая Международная научно-практическая конференция «Big DATA and Advanced Analytics. Big DATA и анализ высокого уровня» Минск. Республика Беларусь (pp. 13-14).
37. Эгамбердиев, Х., Рахматуллаев, Д., & Дилмуродов, З. (2023). ГРУНТ ВА ЕР УСТИ СУВ ОҚИМЛАРИНИНГ ЎЗАРО ТАЪСИРИНИНГ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 3), 107-113.
38. Egamberdiev, K., Khidirova, N., & Islomov, A. (2024). Creation of an automated information system using python and the django framework with a telegram bot. Big Data and Computing Visions, 4(3), 219-226.
39. Sa'dullayev, A., & Asrorov, O. (2024). THE ESSENCE OF NEW PEDAGOGICAL TERMS DURING THE REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF EDUCATION.". Science Shine" International scientific journal, 14(1).



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfséries.com

24th May, 2025

40. Boymurotovna, X. N. Asror o'g'li, AO, & Rajabboyevna, OK (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O'ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOY PSIXOLOGIYANING O'ZGARISHI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 63-70).